

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 49 (66330)
2001 yil 7 dekabr, juma

Sotuvda erkin narxda

Mustaqillik, ozodlik, hurriyat va erkinlik. Bu so'zlarni tilga olganimizda qalbimizda allanechuk faxr va iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi. Boisi, bu so'zlarning bari bizga tegishli ekanligidan. Shukrim, istiqbolga erishdik, yurtimiz mustaqil bo'ldi.

10 Dekabr - O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun.

nishonlaymiz.

O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5- moddasida

DAVLATIMIZ RAMZLARI - IFTIXORIMIZ

O'z tilimiz, Konstitutsiyamiz, bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz bor. Bularning bari bizning faxrimiz, iftixorimiz. Xalqimizning milliy iftixori, g'ururini yuksaklarga ko'taradigan omillar bisyor.

O'zga yurtlarda mamlakatimiz bayrog'i baland ko'tarilib, hilpiraganda, madhiyamiz baralla yangraganda har bir o'zbekning qalbi jumbushga kelishi ham bejiz emas. Yurtimiz dovru'g'ini dunyoga yoyayotgan sportchilarimiz g'oliblikni qo'lga kiritganlarida madhiyamiz sadolari yangrasa, o'zlarini qanday tutishlarini hech kuzatganmisiz?! Ular qalbida Vatan tuyg'usi, millat iftixori jo'sh urayotganligi chehralaridan, quvonch yoshlaridan sezilib turadi.

Uzoqqa bormaylik, bog'chaga qatnaydigan uka va singillarimiz o'ng qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, madhiyamizni baralla kuylashadi. O'quv maskanlarimizda har tong madhiyamiz sadolari yangraydi. Qo'yingchi, yurtimizning 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan har bir fuqarosi madhiyamizni yoddan biladi.

Biz bejiz davlatimiz ramzlari haqida so'z ochmadik. 10 dekabr kuni davlatimiz madhiyasi qabul qilinganligining 9 yilligini

belgilab qo'yilgan.

Madhiya - (gimn) grekcha so'zdan olingan ibora bo'lib, u dasturiy xarakterdagi she'riy tantanali qo'shiq qilib tarannum etilishi ma'nosida ishlatiladi. Madhiyalar turlari juda ko'p, davlat, inqilob, harbiy, diniy va hokazo madhiyalar bor. Ularning ichida eng asosiysi - davlat madhiyasi hisoblanadi. Har bir millatning o'z madhiyasi mavjuddir. Davlatimiz madhiyasi so'zlari sevimli shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub ekanligini yaxshi bilamiz. Musiqasi esa Mutal Burxonov tomonidan bastalandi va bu 1992 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11 sessiyasida qabul qilindi. Madhiyamiz xalqimizning asriy orzulari, orzu-istaklari, intilishini o'z ichiga qamrab olgan. Uning har bir satrida chuqur ma'no mujassam.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, davlatimiz ramzlari xalqimizning shon-sharafi, g'ururini o'zida mujassamlashtiradi. Shunday ekan, ularga hurmat bilan qaraylik. Uka va singillarimiz ongiga ham vatan deb atalmish muqaddas tuyg'uni singdirishga harakat qilaylik.

Shahlo MUTALOVA.

8 dekabr - Konstitutsiya kuni



BAXTNOMA

Sakkizinchi dekabr,
Baxtnoma bitilgan kun.
Yurtimiz saodati,
Namoyon etilgan kun.
Xalqim uchun baxtnoma,
Mayoq, mash'ala bo'ldi.
Islom bobom - yurtboshim,
Unga rahnamo bo'ldi.
Yurtim gullab-yashnadi,
Dillar shodlikka to'ldi.
Jamolini ko'rmoqqa,
Do'stlar orzumand bo'ldi.
Baxt qomusim hamisha,
Porlab, nur sochib turgin.
Baxti kulgan qizingning,
Yo'llarin ochib turgin.

Sadoqat BEKMURODOVA,
Jizzax viloyati, Zomin
tumani, Hulkar qishlog'i, Z.
X. Furqat nomli 66 - o'rta
maktabning 9 - sinf
o'quvchisi.

QOMUSIMIZ - NOMUSIMIZ

Men Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 250 - o'rta maktabning 6 - «A» sinfida o'qiyman. O'qishlarim a'lo. Darsdan bo'sh vaqtlarimda rasm chizishni yoqtiraman. Maktabimizda har bir sanaga bag'ishlab kecha va tanlovlar, ko'rgazmalar o'tkazib turiladi. Kuni-kecha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlab devoriy gazetalar tanlovini o'tkazdik. Konstitutsiyamiz - davlatimizning jismu joni, qomusidir. Men devoriy gazetada shularni ifoda etishga harakat qildim. Hakamlar hay'ati a'zolari uni diqqat bilan tomosha qilib, faxrli birinchi o'ringa loyiq deb topishganda, suyunganimni ko'rsangiz edi. Quvonchimni «Tong yulduzi» gazetasi orqali respublikadagi tengdoshlarim bilan o'rtoqlashgim keldi.

Dildora SAYDAHMEDOVA.

Darhaqiqat, qomusimiz har narsadan ustuvor va barcha uchun majburiy. Agar qonunga hurmat bilan qaralsa, inson huquqlari va ozodligi ham himoya qilinadi. Buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur o'z tuzuklarida «tegishli tartib va qonunga amal etish mening taqdirim va yutuqlarimning asosi hamda tayanchi bo'lib xizmat qildi», deb yozgan ekanlar. Darhaqiqat, qonunni bilgan kishi o'zini ham, oilasini ham, xalqi, davlatini ham himoya eta oladi. Fuqarolarning ongli ravishda qonun talablariga amal qilishlari bugun biz hammamiz intilishimiz lozim bo'lgan fazilat hisoblanadi. Endi esa, «bu fazilat menda bormi?» deya o'zimizga bir savol berib ko'raylik-da, javob

XUQUQIY BILIMDON BO'LSAK

berishga bir oz shoshilmaylik.

Har kuni ishga yo o'qishga boramiz. Transportlar uzog'imizni yaqin qiluvchi vosita. Aytaylik, do'stingiz bilan avtobusning yumshoqqina o'rindiqlarida o'tirib ketyapsiz. Har kuni shu yo'ldan yurib, bir xildagi manzaralarni ko'raverib zerikdingiz chog'i, qo'lingizga ruchkangizni olib o'rindiqlarga do'stingiz ismini yozdingiz. U esa siznikini. Bu orada ko'zlangan manzilga yetib keldingiz va tushib qoldingiz. Yozuv esa go'yo tarixga bitilgandek muhrlanib qoldi,

«Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir».

I. A. KARIMOV.

nazaringizda. Balki bu sizga oddiy holdek tuyulayotgandir. Aslida siz ermak deb bilgan qilmishingiz jinoyat ekanligi haqida o'ylab ham ko'rmaysiz. Afsuski, bunday jinoyatlarga jazo belgilanmagan. Lekin insonning yuragi, ko'ngli, vijdoni pok bo'lsa, albatta jazoni o'zi tayinlaydi. Axir biz ongli

mavjudotlarmiz-ku!

Shu o'rinda yana bir mushohada. Kuz faslida daraxtlarning yaproqlari to'kilishi hammaga ayon. Oramizda ana shu yaproqlarni, turli chiqindilarni ariqlarga supurib tashlaydigan yoki quvurlardan oqizib yuboradigan insonlar ham yo'q emas. Bu ham menimcha jazosiz jinoyat sanaladi. Endi esa yuqoridagi savolga vijdonan javob beraylik. Keltirilgan misollar oddiygina bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin aqlan yondoshganda unday emas. Gohida xorijiy mamlakatlarda o'qib kelgan yoshlarni gaplarini eshitib qolaman. U yerining

havosi toza, tabiati musaffo. Ko'chalarini aytmayisizmi, bexosdan tushgan oppoq kostyuming ham kir bo'lmaydi-ya, deyishadi. Nima uchun faqatgina xorijiy mamlakatlarda? Bizning yurtimizda ham ana shunday muhit hukmron bo'lishi uchun kim jon kuydirishi lozim? Biz emasmiz? Buning uchun esa har birimiz o'zimizga, hatti-harakatimizga, qilmishimizga yarasha adolatli hukm chiqara olsak, kifoya, deb o'ylayman. Axir bizning «Inson» degan sharafli nomimiz bor-ku?! Bu sharafli nomga munosib bo'lib yashaylik.

Adolat G'AYRAT qizi,
Jurnalistika
fakultetining 2-kurs
talabasi.

QUSHLAR MENING DO'STLARIM

Bizning qishlog'imizda bitta katta chinor daraxti bor. U hozir 35 yoshda. Uning ichida bir bulbulchaning ini bor. O'tgan yili yana tuxum qo'yib polaponlar ochdi. Polaponlar qanot chiqardi. Ulardan biri uchishga shay bo'lib inidan qanot qoqib uchdi. Shu payt shamol turib qushni pastga qulatdi va uning oyog'i sindi. Men darhol borib uyga olib keldim va oyog'ini davoladim. Davolash 10 kunga cho'zildi. Keyin uni uyiga eltib qo'ysam, onasi tanimadi va inidan hayday boshladi. Xafa bo'lib ketdim. «Nahot o'zining onasi o'z bolasini inidan haydasa», deb o'yladim. Keyin qushni uyga olib borib boqa boshladim. U hozir ulg'ayib, uyimizning ko'rki bo'lib qoldi. Bu ishimdan ota-onam xursand bo'lishdi!

Kamoliddin HAMROYEV,
Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 16- maktabning 7- sinf o'quvchisi.

Farg'ona viloyatining Bag'dod tumani xalq ta'limi bo'limi qoshida Nomozali Parpiyevning sa'y-harakatlari bilan «Bolalar va o'smirlar uyushmasi» yangi nizom bilan ish boshlagan edi. Shu kungacha ushbu uyushmada juda ko'p ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Hozir u yerda 7 turdan ortiq to'garaklar ishlab turibdi. «Kashtachilik», «Duradgorlik», «Nutq madaniyati», «Tasviriy san'at», «Musika», «Jonli burchak», «Yosh qalamkashlar» kabi

XATLAR TEGIRMONI



BAG'DODLIKLAR YUTUQ'U

to'garaklarni tashkil qilishdan asosiy maqsad - yoshlarning bo'sh vaqtlarini bekor o'tkazmaslik, o'smirlarni yoshligidan o'zi qiziqqan, mehr qo'ygan kasbga to'g'ri

yo'naltirish va ularning har xil oqimlarga qo'shib ketishlarining oldini olishdan iborat. Shuni aytib o'tish kerakki, uyushmaga tuman xalq ta'limi bo'limi mudirasi Damira Yusupova ham har tomonlama yaqindan yordam bermoqda. Bu yil mobaynida ular ancha yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Mana masalan, «Musika» to'garagining a'zolari yaqinda Respublika miqyosida o'tkazilgan qo'shiqlar ko'rik-tanlovida viloyat

g'olibligini qo'lga kiritishib, Xorazmda o'tkazilgan Respublika bosqichida faxrli ikkinchi o'rinni egallab qaytishdi.

«Yosh qalamkashlar» to'garagi rahbari

Vali Ahmadjonning yangi taklifi bilan tumandagi yosh shoirlarining namunali she'rlari to'planilib, «Umid g'unchalari» nomli ilk she'riy to'plam tuman xalq ta'limi bo'limi bilan hamkorlikda nashrdan chiqarildi. Qolaversa, havaskorlarning she'rlari ularga ruhiy rag'bat sifatida tuman gazetasida vaqti-vaqti bilan chop etilmoqda. Uyushma ijodkorlari yangi yildan boshlab to'garaklarga nogiron bolalarni ham jalb qilishni rejalashtirib turishibdi. Biz bilamizki, har bir yaxshi niyat bilan qilingan mehnat o'z

OLAPAR

Qo'shnimizning olapar Nomli katta iti bor. Qopag'on it dastidan, Uydagilar ko'p bezor.

Olaparning jazosin, Berish kerak ekanda. O'ylay-o'ylay chorasin, Topdim o'n kun deganda.

Ukam aytar olapar, Jazosin berib qo'ydim. Kosasidagi sutin, Qoldirmay ichib qo'ydim.

Muqaddasxon

EHSONOVA, Bag'dod tumanidagi

«Bolalar va o'smirlar uyushmasi»ning «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi.

БИЛИМДОНЛАР, КЕЛИНГ БЕЛЛАШАЙЛИК

Яқинда мактабимиздаги 7- синфда таълим олаётган билимдонлар ўзаро баҳслашдилар.

Барча фанлардан ўтказилган савол-жавоблардан биз кўп нарсаларни билиб олдик. Барча саволларга жавоб бера оламан, деб юрувчи билимдонлар ҳам айрим саволлар устида бош қотиришга тўғри келди.

Бу каби беллашувлар тез- тез бўлиб турса, айни муддао экан.

Абдуазим САМАДОВ,
Тошкент шаҳар, Шайхонтохур туманидаги 324- мактабнинг 7- «А» синф ўқувчиси.

ҚИШЛОҒИМ ТОНГИ

Қишлоғимда эрта тонгда,
Шафақ юзин очади.
Эркалатиб гул, булбулни,
Куёш нурин сочади.
Йилт-йилт этиб товланади,
Япроқлар узра шабнам.
Қушларнинг шўхчан навоси,
Дилларга ёқар бирам.
Гўзалликда тенги йўқдир,
Қишлоғим гўзал, сўлим.
Меҳмон бўлиб келинг дўстлар,
Кўксимда икки қўлим.

Шохиста САЙДАХМЕДОВА,
Тошкент вилояти, Тошкент туманидаги Муқимий номи 10- мактабнинг 6- синф ўқувчиси.

Мактабимизда «Vatan taqdiri» mening taqdirim» mavzusida teatrlashtirilgan suhbat spektakli bo'lib o'tdi.

Suhbatni Respublika «Turon» studiyasi badiiy rahbari R.B.Yoriyev olib bordi.

Suhbat davomida o'quvchilar ko'plab savollar berdilar. Barcha

savollarga ishtirokchilar aniq va puxta javob qaytarishdi.

Suhbatdan angladikki, vatan taqdiri har birimizning taqdirimiz ekan.

Nusrat SHOMURODOV,
Poytaxtimizning Akmal Ikromov tumanidagi 197- maktabning 8- sinf o'quvchisi.

SOG'INAMAN SINFDOSHLIKNI

Maktabni tamomlaganimizga ham 2 yil bo'ldi. Bizni o'sha eng beg'ubor, limmo-lim orzular ummoniga to'la, bir-biridan qiziqarli va unutilmas voqealarga boy bo'lgan tengsiz va bebaho maktab yillaridagi xotiralar o'z domiga tortadi. Ana shu davrlarda ham «Tong yulduzi» bizning sevimli do'stimiz, ishonchli hamkorimiz edi. Har gal gazetani mutolaa qilganimizda undagi bolajonlarning nafasi ufurib turgan sahifalar bizning shodon maktab yillarimizni yodimizga soladi, bo'lib o'tgan voqealar ko'z o'ngimizda gavlalanadi.

Qani do'stlarning shodon kulgusi,

Qadrdon dargoh, maktab hovlisi.
Sinfidagi ishqiy sarguzasht,
Ilk muhabbat, sevgi tuyg'usi.
Eslab o'sha bebosh yoshlikni,
Sog'inaman sinfdoshlikni.

Maktab uzra ovozi yangroq,
Chalinganda so'nggi qo'ng'iroq.
Xayrlashdik omadlar tilab,
Shundan beri mana biz yiroq.
Eslab yana o'sha yoshlikni,
Sog'inaman sinfdoshlikni.

Zulxumor MAMATQULOVA,
Andijon viloyati Bo'z tumani.

Bir oliygohdan ikki maktub

Men keng paxtazor tomon boradigan, o'ziga asir etgan, qalbim koshonasiga aylangan ilm dargohim - maktabimni sog'indim. Bizga ziyo nurlarini ulashishdan tolman, hamma shoxligu

erkaliklarimizni ko'targan, mehr va ilm ummonlari - ustozlarimni qo'msadam. Har kuni bir sinfda birga dars o'tgan, gulgun chehra, shirin so'z, tanti sinfdoshlarim-azizlarimni har lahza, har kun esladim. Ilm maskanimni tamomlab, o'zga dargoh sari yuzlandim. U yerda ham muallimlar, sinfxonalar, sinfdosh o'rniga kursdosh do'stlar hamroh bo'lishdi.

Men sinfdosh va kursdosh do'stlarim bilan faxrlanaman. Kelajakda chin inson bo'lib, O'zbekistonimizning ravnaqi yo'lida fidoyi, komil farzand bo'lishimizga ishonaman. Shu o'rinda ushbu satrlarni baralla aytgim keldi:

Jahon shodliklari yig'ilsa butun,
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.
Mo'tabar ABDUKARIMOVA,
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani, Andijon Davlat tillar pedagogika institutining 2-bosqich talabasi.

Maktabimizning tashkil qilinganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Lekin shu qisqa fursat ichida bilim dargohimizda amalga oshirilgan ibratli ishlarimiz maqtasa maqtagudek.

O'quvchilarimiz bilimga chanqoq, intiluvchan o'g'il-qizlar. Maktabni o'z uylaridek sevishadi, sinf xonalarini, yo'laklarni ozoda saqlashadi. Maktab hovlisi, atroflariniku gapirmay qo'ya qolay. Shanbaliklar uyushtirib, tez-tez tozalab turish o'quvchilarimiz uchun odatiy holga aylanib qolgan.

Turli to'garaklarning muntazam faoliyat ko'rsatishi, tadbir va uchrashuvlarning ko'plab o'tkazilishi bois maktabimiz doimo o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi. 16 - noyabr kuni 9 - sinflar o'rtasida «Quvnoqlar va zukkolar» musobaqasi o'tkazilgan bo'lsa, kuni-kecha 7-, 8-, 9 - sinf o'quvchilari ishtirokida «Giyohvandlikka qarshi kurash» mavzusida yana bir tadbir o'tkazildi. Bunday tadbirlarni kuzatar ekanman, o'quvchilarimizning mushohadalari, dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligini ko'rib quvonaman. Ertangi kunimiz, kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'laman. Ayniqsa, ularni to'garak mashg'ulotlarida ko'rsangiz edi. Imkon qadar ko'proq bilishga, o'rganishga intilishadi. Oralarida umidli, iqtidorli o'quvchilar ham talaygina. «Men uchishni istayman» nomli she'riy to'plam nashr etilgan shoir qizimiz Nargis Jumayeva 4-sinfni bitirish arafasida

o'tkazilgan kechada do'stlariga o'z kitobchalarini sovg'a

MAKTABIM - SENI MAQTAGUM



qildi. «Onalar va bolalar» yili munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda ham o'z onasi bilan ishtirok etib, sovrinli o'rinni egalladi. Nargis kabi adabiyotga, she'riyatga ixlosmand o'g'il-qizlarimiz sevimli shoirimiz Zulfiya Mo'minova boshqarib kelayotgan «Badiiy o'qish» to'garagiga qatnab, ustozlari ko'magida she'riyatning siru-sinoatlariga oshno tutinyaptilar.

Asrimiz «kompyuterlar asri» deb bejiz aytilmayapti. Ayni paytda turmushimizning biror jabhasini kompyuterlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, bugunning bolasi kompyuterlar bilimdoni bo'lishi shart. Muborak opa Isroilova boshchilik qilayotgan

«Yosh dasturchi» to'garagiga nafaqat maktabimiz, balki qo'shni maktablardan ham o'quvchilar a'zo bo'lishgani ham shundan.

«Mohir qo'llar» to'garagida bichish-tikish, pazandalik kabi qiz bolalar uchun zarur bo'lgan hunarlarni o'rganib kelayotgan chevar qizlarimizga Zumrad Bahriddinova ustozlik qilyaptilar. Sinfidan tashqari olib borilayotgan ishlar, o'tkazilayotgan tadbirlar talabchan va ziyrak ustozimiz - «Ma'naviyat va ma'rifat» ishlari bo'yicha direktor muovini Gulchehra Turg'unovanning nazoratida bo'lsa, ta'lim-tarbiya ishlariga esa mohir pedagog Ivanova Yelena Nikolayevna bosh-qosh...

Maktabimizni ibratli maktablar qatoriga qo'shishadi. Bunday nomga sazovor bo'lishimiz maktabimiz rahbari Nargiza Tursunovanning mehnatlari, tinimsiz izlanishlari samarasidir. O'ta mehribon, shirinso'z, bolalarni jondan sevuvchi, kezi kelganda, o'ta qattiqqo'l va talabchan rahbarimiz har bir o'qituvchining qalbiga to'g'ri yo'l topa olgani bois, jamoamiz ahil, inoq, hamfikir. Bunday muhit esa shogirdlari ustozlarni yangiliklar, yaxshiliklar sari ilhomlantirishi tayin.

Nasiba TURDIQULOVA, Toshkent shahar,

Sirg'ali tumanidagi 322 - maktabning til va adabiyot fani o'qituvchisi.

Biz serquyosh, mustaqil davlatning baxtli, sog'lom va barkamol avlodlarimiz. Hozirgi kunda o'qiyman, bilim olaman degan har bir o'g'il-qiz uchun respublikamiz hukumati va Prezidentimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bizdan talab qilinadigan asosiy vazifa - o'qib o'rganish, kelajakda yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashga o'z hissasini qo'sha oladigan yetuk mutaxassis kadrlar bo'lib yetishish.

Bizga ma'lumki, shu yil 24 yanvar kuni muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan Kamolot jamg'armasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi. Yangi tuzilgan tashkilotning eskisidan farqi shundaki, u nodavlat, notijorat, doimiy harakatdagi yoshlarning tashkilotidir. Uning bo'limlari zavod va fabrikalarda, oliy va o'rta maxsus bilim dargohlarida, mahallalarda o'z faoliyatini boshladi. Bizning Toshkent Pedagogika kollejimizda ham navbatdan tashqari yig'ilish o'tkazilib, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Biz ishni avvalo ish rejeasini

tuzishdan boshladik va uning asosida ko'plab ibratli ishlarni amalga oshirdik. Yotoqxona talabalari orasida o'tkazilgan «Ozoda xona» ko'rigi, «Ko'rkam

«Ayol borki - olam munavvar», «Men buyuk yurt farzandiman» mavzularidagi insholar tanlovi, «Qo'li guldur o'zbek qizining» shiori ostida o'tkazilgan «Iste'dod

muvaffaqiyatli o'tgan ko'ngilli o'quvchilarimiz «Kamolot» ijtimoiy harakati saflariga qo'shilish uchun qasamyod qilishdi. Bilim

«Kamolot» yoshlarning ishonchi, suyanchi va tayanchi bo'lsin.

I.A.KARIMOV.

«KAMOLOT» DA QASAMYOD

(Toshkent Pedagogika kolleji «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hayotidan lavhalar)

bog'» tanlovi, talabalar bilimini oshirish maqsadida uyushtirilgan 2001» milliy hunarmandchilik «Kitobxon talaba», «Zakovat» ko'rgazmasi, «Alpomish va intellektual savol-javob o'yini. Barchinoylar» avlodi nomli katta a'zolarini samimiy qutlab, ezgu

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan har bir o'g'il-qizning qalbi orzularga limmo-lim. Ulardan eng totlisi - talaba bo'lish orzusi bo'lsa kerak, nazarimda. Bu yil mening bu totli orzuim ushaldi. Toshkent pedagogika kolleji talabasi bo'ldim. Bolaligimda o'zim havas qilgan ustozlarimdek bo'lib yetishish uchun puxta bilim olishga intilyapman.

Kollejimiz - ikkinchi uyimizga aylangan. Ustozlarim, ayniqsa, ma'naviyat ishlari rahbari Elmira opa Ibrohimova xuddi onamdek, dugonalarim esa opa-singillarimdek aziz va ardoqli bo'lib qolishgan. Kollejimiz qizlarining yurish-turishlari, kiyinishlari, muomala madaniyati, hatto, salomlashishi ham o'zgacha - sharqona odob-ahloqimizga xos va mosdir. Bayram va tantanalarda o'tkaziladigan kecha va uchrashuvlarimizni ham o'zgacha bir tarzda o'tkazishga harakat qilamiz. Keng va shinam dars xonalari, lingafon va kompyuter xonalari,

ustaxonalar bizning ixtiyorimizda. 50 dan ziyod o'quvchilarimiz «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatiga a'zo bo'lishgan. Amalga oshirilayotgan ibratli ishlarning bariga bosh-qosh bo'lib kelayotgan kollejimiz rahbari Ozoda opa Eshonxo'jayeva:

- Qizlarim, sizlar bo'lajak ona, ustozlarsiz. Yosh bolalar esa shirin so'zning gadosi bo'lishadi. Qo'pollik, qo'rslik bilan hech kim murodiga yetmagan. Shuning uchun ham hozirdanoq bolajon bo'ling, xushmuomalalik, samimiylik kabi fazilatlarini o'zingizda shakllantira boring, deya nasihat qilib charchamaydilar...

Yuz bora eshitgandan, bir bora ko'rgan afzal, deyishadi. Hikoyamni shu yerda muktasar qilib, sizlarni kollejimizga taklif qilay. Keling, ko'ring, havas qiling!

Samira MIRZAMUHAMEDOVA,

1-bosqich talabasi.

sport bayramlari fikrimizning dalili bo'la oladi. Bundan tashqari ko'plab ochiq tarbiyaviy soatlar, teatr aktyorlari, san'atkorlar bilan ijodiy uchrashuv kechalari tashkillashtirildi. O'tkazilgan har bir ko'rik- tanlov g'oliblari o'z vaqtida munosib taqdirlandilar.

Kuni-kecha kollejimizda yana bir tantanali shodiyona bo'lib qilishga, sobit e'tiqodli, o'tdi. Test sinovlaridan mustahkam irodali,

niyatlar bildirishdi. Bayramga tashrif buyurgan ota-onalarimiz ham farzandlari quvonchiga sherik bo'lishdi. Harakatning yangi a'zolari yig'ilganlarni «Ona vatanni astoydil sevishga, xalqimizning milliy, moddiy va madaniy qadriyatlarini chuqur o'rganishga, ularni hurmat qilishga, sobit e'tiqodli, irodali,

Respublikamiz Mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo'sha oladigan bo'lishga, dunyoviy bilimlarni puxta egallashga, mamlakatimiz kelajagi uchun zarur bo'lgan kasb-hunarni astoydil egallashga «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qishga, tinmay izlanishga, ma'naviy-axloqiy pok bo'lishga, o'quv yurti, davlatimiz mulkini ko'z qorachig'idek asrashga, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Nizom va dasturlarini, unda belgilangan ichki tartib qoidalarni so'zsiz bajarishga» ishonirishdi. Endilikda kollejimizda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati 50 kishilik jamoa bilan harakat qiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, ijtimoiy harakatimiz respublikamiz bilim dargohlari, shahar, tuman «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan shartnomalar imzolagan va ular bilan doimiy uchrashuvlar uyushtirib, o'z fikrlarimiz bilan o'rtoqlashamiz, bahs va munozaralarga kirishamiz.

Galdagi vazifalarimiz haqida suhbatlashamiz.

Bahodir ZIYOVIDDINOV,

Toshkent pedagogika kolleji «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati lideri.



ONAJONIM - TABIAT

UYIMIZDA
HAYVONOT BOG'I

Ko'pchilik tengdoshlarim singari jonivorlarni, parrandalarni sevaman. Uyimizda 29 ta tovug'imiz va bitta xo'rozimiz bor. Hafta davomida yuzga yaqin tuxum olib, har kuni nonushtaga mazza qilib quymoq yeyishsa kerak, deb o'ylayotgandirsiz-a? Yo'q, unday emas. Ukam ikkimiz qanchalik parvarish qilmaylik, tovuqlarimiz haftasiga 4-5 dona tuxum qo'yishadi, xolos. Tovugboqar do'stlarim, maslahat bering, nima qilsam tuxumlarni soni ortadi?

Kuni-kecha dadajonim zotdor kuchuk bolasini olib keldilar. Biz



uni Mars deb nomladik. Yoqimtoy kuchukchamiz atigi bir oylik bo'ldi. Biz uni xuddi chaqaloqdek parvarishlab, sut bilan boqyapmiz. Dadam yaqinda quyonchalar ham olib kelmoqchilar. Hademay uyimizda mittigina hayvonot bog'i bo'ladi.

Mansurjon SOBITOV,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
169- maktabning
2- sinf o'quvchisi.




ONA ZAMINIMIZ

Zaminimiz - bizning onamizdir ul, Bag'riga g'amlarni sig'dira olgan. Gohi payhon qildik, gohi ekdik gul, Bizning yukimizni ko'tarib tolgan.



Chiqindiga to'ldi qancha chamanlar, Urush bo'lgan joyda qon daryo bo'ldi. Ona yer oh chekib, yig'lab zorlanar, Oroli quridi, sho'r tuzga to'ldi.

Yerni e'zozlasak, u bizni boqar, Tabiatni asrash - bizning burchimiz. Nahot payhon qilmay, gullar ekishga, Uni pok asrashga yetmas kuchimiz?




Nomimiz tillarda qolishi uchun, Yurtimizga bir tirgak bo'lib yashaylik. Ertaga kelajak avlodlar uchun, Havo, suv, zaminni ko'zdek asraylik.

Ma'suda IRISNAZAROVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumani.

O'sha kezlarda to'rt yoshlarda edim chamasi. Bir voqea hecham yodimdan chiqmaydi. Onam bilan bog'chadan qaytayotib jajigina mushuk bolasiga ko'zim tushib qoldi. U shunchalik kichkina ediki, kattalarning kafti unga katta, shinam yotoq o'rnini bosardi.

Onamga yalinib-yolvorib uni uyga olib ketishga ruxsat oldim. Iliqqina suvda yaxshilab yuvintirgandim, oppoq rangli mushukcha ekanligi ma'lum bo'ldi. Qornini to'ydirib, bo'yniga o'zimning sevimli bog'ichimni taqib qo'ydim. Qo'g'irchoqlarimning krovatchalaridan biriga yotqizib, uyquga ketdim. Ertalab mushukchamning yoniga ovqat qo'ydim-da, onam bilan bog'chaga yo'l oldim...

Bog'chadan kelibog mushukchamning yoniga oshiqdim. Ovqat yeyilgan, idishcha ag'darilib yotardi.




Mushukcham esa yo'q. Yoz kunlari bo'lgani uchun derazalar lang ochiq e d i .

Miyamga kelgan fikrdan

qo'rqib, shoshib oynadan pastga qaradim. Kecha mushukchaga kiydirib qo'ygan bejirimgina ko'ylakcham daraxt shoxlarida ilinib yotardi. Shuncha mehribonlik qilsam ham ketib qolibdi-da, deya baqirib yig'lab yubordim...

Kuz keldi. Ko'chada o'rtoqlarim bilan qiyqirishib o'ynab yurardik. Qayerdandir mushukning ohistagina miyovlagan ovozi eshitildi. Ko'kimtir rangli mushukcha oyog'imga suykilib, erkalashimni kutib turardi. Egilib qarasam, ne ko'z bilan ko'rayki, bo'ynida mening bo'yinbog'im. Mushukcham qaytib kelibdi! Uni qo'limga olib, kirlnib, xurpayib ketgan yunglarini silay boshladim. Shu payt atrofimni qizlar o'rab olishdi: «Voy mushukmi, menam bir silay» chug'urlasha ketishdi ular. Mushukcham qo'limdan g'ayritabiyy bir kuch bilan sakrab tushdi-yu daraxtlar ortiga kirib ketdi.

Zamiraxon BESHIMOVA,
Chilonzor tumanidagi 173 -
maktabning 10 - sinf
o'quvchisi.



O'G'RI QARG'A

Ko'klab uchar qarg'alar, Yong'oqlarni o'g'irlab. Bu holni ko'rib chumchuq, So'z boshladi chug'urlab:

- Nega sizlar beruxsat, Kirasiz bog'imizga? Tinchimizni buzasiz, Qo'nib yong'og'imizga.

Qarg'a so'zni tinglamay, Yong'oqqa og'iz ochdi. Payt poylab Olmaxon, Yong'oqni olib qochdi.

Dilrabo

DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning
sinf o'quvchisi.




NILUFAR

Olamning ko'rkiga yana ko'rk qo'shib, Gurkirab turadi ko'lmak yuzida. Dunyodagi barcha xushbo'y islarni, Nafislikni mujassam etib o'zida.

Ko'lmakda o'sadi, ammo nachora, Alamli ko'z yoshin to'kmas shunda ham. Hayot rishtasini balchiqqa qadab, Go'zallik beradi atrofga har dam.

Dilfuza MAJIDOVA,
Poytaxtimizdagi 154 - maktab
o'quvchisi.



Men Toshkent Pedagogika kollejida tahsil olaman. Har tong o'qishga ketaturib, transport bekatlarini supurib-sidirib yurgan onaxonlarga ko'zim tushadi. O'qishdan qaytayotganimda esa ana shu bekatlarning yana o'z asl holiga kelib qolganining guvohi

BOLANI BOLA DEYMIZ, AMMO...

Chiptalarni to'g'ri kelgan tarafga otib ketayotgan, o'rindiqlarda joylashib olib, pista chaqayotgan odamlarni kuzataman. Achinarlisi shundaki, ular orasida ota-onalarimiz tengilari ham yo'q emas. Vaholanki, ular atrofni ifloslantirayotgan bolalarni tartibga chaqirsalar yarashadi...

Ayni kuz kunlarida xazonlarni

supurib, yoqib yuborayotganlar ham aksariyati kattalar ekanligidan ranjib ketaman. Axir yonayotgan xazonlarning zaharli, qo'lansa hidi nafaqat

o'zlarini, atrofdagilarni ham zaharlayotgani haqida ozmuncha gapirilyaptimi? Ularga tanbeh beray deymanu hurmatsizlik bo'lmasin, deya indamayman. Jonajon tabiatimizni, ekologiyani avaylab-asrash hammamizning burchimiz ekanligini ular nahot tushunishmasa?

Saida MIRZAMUHAMEDOVA,
Yunusobod tumanidagi
253- maktab o'quvchisi.



Tengdoshingiz 6-biznes maktabining 19-guruh o'quvchisi
Kristina SHATNENKO kuz manzaralarini ifodalabdi.

Sahifani Feruza JALILOVA tayyorladi.

Vatan har birimizning muqaddas uyimiz, qalbimizdagi Ka'badir. Biz ona Vatanni jondan sevguchi, uning mehrobiga bilimi, tajribasi, boyliklari, kerak bo'lsa, shirin jonini ham keltirib qo'yuvchi xalqmiz.

Yaqinda O'zbekiston telvideniyesi orqali namoyish etilgan to'rt qismli «Ostona» badiiy filmi Vatanga cheksiz muhabbat ruhi bilan yo'g'rilgan. Film ssenariysini kino san'atkor YU.Roziqov yozgan. Televideniya uzoq yillar ishlab, katta tajriba orttirgan SH.Mahbubov rejissyorlik qilgan. Mohir tasvirchi B.Ayupov, bastakor J.Izzatovlar asarning ta'sirchan chiqishi uchun katta hissa qo'shganlar.

Ostona - ona zaminimiz boshlanadigan muqaddas nuqta. Vatan ajdodlarimiz yashab o'tgan, kindik qonimiz tomgan avlodlarimiz yashaydigan yurt. Uni ko'z qorachig'imizday asrash, dushmanlardan himoya qilish har birimizning sharaflari burchimiz. Rejissyor Vatanimiz sarhadlarini mardona qo'riqlayotgan chegarachilar hayotini turli harbiy qismlarda xizmat qilayotgan kursdoshlar taqdiri orqali ko'rsatib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Filmning 1- qismi quruqlikdagi chegarachilar hayoti haqida hikoya qiladi. Filmdagi voqealar mahalliy cho'ponning chegarani buzib o'tishi bilan boshlanadi. U har gal yo'qolgan mollarini qidirib yurganini takrorlaydi. Hushyor chegarachi kapitan Bahodir Jabborov (bu rolni B.Yo'ldoshev ijro etgan) cho'pon aynan bir joyda uch marta chegarani buzib o'tganidan shubhalanadi.

Uning teran fikrlashi va topqirligi tufayli egizaklardan biri giyohvand moddalarni chegaradan o'tkazib yuborishga uringani fosh qilinadi.

Ikkinchi qismda

tomoshabinlar jangovor harbiy dengizchilarimiz hayoti bilan tanishadilar.

Daryo bo'yidagi qishloqda yashovchi ziyrak o'quvchi bola Doston (A. Uzoqov) tunda Tuya orolida kimdir fonar yoqib kimgadir imo-ishora qilayotganini sezib qoladi. Avval boshda uning gaplariga hech kim ishonmaydi. U kemaga yashirilib olib harbiy dengizchilar bilan reydgacha chiqadi. Bolaning yordamida chegarachilar orolda narkotik moddalar saqlanayotgan omborni uchta jangari qo'riqlayotganidan xabar topadilar. Faqat o'z nafsini o'ylab, mo'may pul topishga o'rgangan qonxo'rlar do'ppi tor kelgan paytda bir-birovlarini gumdon qilish harakatiga tushadilar. Yaramagan to'da boshlig'ini kema komandiri Qudrat Hasanov (A.Hamrayev) qo'lga oladi. Suvdan

quruq chiqmoqchi bo'lgan Vatan xoini uni avrab, katta boyliklar va'da qiladi. Shunda komandir: «Men sen kabi Vatanfurushdan xazar qilaman, men ona Yurtim

zaminidaman.

Vatanim mening eng katta davlatim. Seni omon qo'ymayman», - deydi.

Uchinchi qismda tog'lik joylardagi chegarachilar haqida hikoya qilinadi. Harbiy xizmatga chaqirilgan askar Baratov (V.Shamshiyev) harbiy xizmatni o'tash uchun shu joyda qoldirishlarini so'raydi. U tog' sharoitini, uning xususiyatlarini yaxshi biladi. Harbiy qismdagi ba'zi zobitlar uning yurish-turishi, gap-so'zlaridan shubha qilishadi. Faqat kapitan Odil Mahkamovgina (F.Shamsimatov) uning toza ko'ngilli, mard yigit ekanligiga qattiq ishonadi. Askar yigit Baratov yagona o'q bilan dushmanlarni ta'qib etib, ularning izidan tushadi. Yo'l boshlovchini nishonga olib, tizzasidan yarador qiladi. Dushmanlar yo'l ko'rsatuvchisiz qoladilar, olg'a

bosishlari og'irlashadi.

Vaqtida yordamga yetib kelgan kuchlar ularni qurolsizlan tiradilar. Filmning to'rtinchi qismida h a v o d a g i chegarachilarimiz haqida gap boradi. Kapitan Said opa (R.Qamariddinova) aeroportda nazoratchi bo'lib ishlaydi. Yo'lovchilarning shubhali hatti-harakati, egnidagi

kiyimi, ruhidagi sezilar-sezilmas o'zgarishlar uning diqqat e'tiboridan chetda qolmaydi. Chet elga chiqib ketayotgan yo'lovchi ayolning pasporti bilan bo'ynidagi zebgardonga tushirilgan nishon o'rtasidagi nomunosiblikdan ajablanib, uni zimdan kuzatadi. Bilimdonligi ko'p narsalardan xabardorligi, tufayli ayol opasining pasporti bilan safarga otlanayotganligini fosh etadi. Kontrabanda mollari bilan xufyona savdo qiluvchi ucharlar uning farzandini bog'chadan o'g'irlashadi. Xorijdan kelayotgan ajnabiy yo'lovchini tekshirmasdan o'tkazib yuborsa, o'g'lini shikast yetkazmasdan qaytarib berishlarini shama qiladilar.

Chegarachilar tezkor harakat qilib, bilim va mahoratlarini ishga solishib, yovuz niyatli to'dani dog'da qoldirib, bolani qutqaradilar.

Ko'p qismli «Ostona» badiiy filmi kuzatar ekansiz, harbiy qismlardagi tartib- intizom, chegaralarimizning jangovor mahorati, aql-zakovatidan hayratlanasiz. Qalbingiz mard Vatan himoyachilari bilan iftixor his-tuyg'ulari bilan limmolim to'ladi.

Ular safida harbiy xizmatni o'tash ishtiyoqida yonasis.

Shuning uchun bo'lsa kerak, «Ostona» filmi o'smirlar va yoshlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Filmni chegarachilarimiz, harbiy mutaxassislarimiz ham tomosha qilib, yangi ekran asri ularga juda manzur bo'lganini ta'kidlashdi. Filmni davomini suratga olish degan taklif kiritishdi. Harbiy - Vatanparvarlik mavzusidagi mazmunli va qiziqarli film tomoshabinlarning barcha qatlamida yaxshi taassurot qoldirdi. Film ijodkorlarini muvaffaqiyat bilan tabriklaymiz. Ularga ijodiy parvozlar tilaymiz.

Mirzo Anvar Karimov.



KAMOLOTCHILAR BELLASHUVI

Yaqinda Hamza tumanidagi 227 - maktabda «Bola huquqlarini himoya qilish konvensiyasi»ning 12 yilligiga bag'ishlangan «Oqibatini o'ylab ko'raylik», «Kattalar olami bolalar nigohida», «Biz nimalarni buzishga ko'nikkanmiz?» mavzularida ajoyib tadbir o'tkazildi. Tadbirda ota-onalar, mahalla faollari, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirok etdilar. «Kamolot»

yoshlar ijtimoiy harakatining boshlang'ich bo'g'ini - «Kamolot nihollari» yoshlar tashkilotining raisi Mavluda Zokirova tadbirga boshlovchilik qildi. So'ngra maktab rahbari Saodat opa To'raxonova so'z olib, maktab hayoti, «Kamolot nihollari» tashkilotining faoliyati haqida gapirib, jumladan shunday dedi: «Yoshlar bizning kelajagimizdir. Yosh avlod jismonan va ma'nan barkamol bo'lsa, hayotimiz poydevori shunchalik mustahkam bo'ladi. O'quvchilarning

bo'sh vaqtlarini unumli, sermazmun o'tkazish, salbiy holatlarni oldini olish maqsadida tuzilgan ushbu tashkilot bolalarni o'z saflariga jipslashtiryapti.» O'z shiori,


r a m z i, jamg'armasi, maxsus kiyimboshiga ega bo'lgan mazkur tashkilotning «Adolatparvar», «Ma'rifatparvar», «Menejerlar», «Milliy olimpiya», «Do'stlik» nomli beshta yo'nalish bo'yicha ish olib boradigan klublari bor. Turli mavzularda suhbatlar, kecha va tadbirlar, sayohatlaru ko'rik-tanlovlar o'tkazish tashkilotning doimiy yumushiga aylangan.

Shu kuni tashkilot klublari o'rtasida bellashuv ham bo'lib o'tdi. «Klub haqida ma'lumot va reklama», «Bola huquqlari» singari shartlarni a'lo darajada bajargan Iroda Azizova boshchiligidagi «Menejerlar» klubi 1, Durdona Beknazarova boshchiligidagi «Adolatparvar» klubi 2 - o'rinni

egallashdi. Suxrob Sultonov boshchiligidagi «Milliy olimpiya» klubiga esa 3 - o'rin nasib etdi.

Tadbir o'quvchilarning musiqiy chiqishlari, kuy va qo'shiqlari bilan davom etdi. Musobaqada g'olib chiqqan klublarga va maktabning yetakchi, namunal o'quvchilarga BMT tomonidan taqdim etilgan mukofotlar taqdim etildi.

Komil YORIYEV,
O'zMU talabasi.



«Biz terrorchilarga qarshi kurashamiz, biz terrorchilardan qasos olamiz», degan shiorlar bilan AQSH yoshlari chiqish qilmoqda.

11 sentyabr AQSHda sodir etilgan terrorchilik harakatlari butun dunyo aholini qattiq larzaga soldi, jahon ahlining nafrati terrorchilarga nisbatan oshdi, ayniqsa bu bo'lib o'tgan

AQSH YOSHLARI TERRORCHILARGA QARSHI KURASHMOQCHI

fojealar yoshlarga qattiq ta'sir etganga o'xshaydi. AQSH yoshlari shuning uchun terrorchilarga qarshi kurashga kirishgan bo'lsalar kerak.

Darhaqiqat, bu fojeadan so'ng AQSH bilan birgalikda jahon hamjamiyati terrorchilarga qarshi kurashni,

terrorchilarni payini qirishga va terrorni yo'q qilib tashlashga astoydil kirishdi. AQSH yoshlari o'z harakatlari bilan kattalar ortidan ergashmoqda.

AQSH shtati Floridadagi Okala shahri harbiy aerodromga ikki harbiy samolyoti ta'qibi ostida bir matorli samolyot

qo'ndiriladi. Samolyotdan 17 yoshli bir bola tushib, harbiylarga o'z noroziligini bildiradi, harbiylar boladan nega uchib yurganligini so'raganda, u harbiy uchuvchi bo'lishni orzu qilishini aytadi. Harbiylar qiziqib undan sababini so'rashsa, bolakay ham, terrorchilarga qarshi kurashish uchun deb javob beradi.

MASHINAMNI TOPIB BERING!

Dunyo bo'yicha avtomashinalarni olib qochilishi AQSHda ko'p sodir etilar ekan. Asosan yosh yigit-qizlar sho'xlik qilib, ko'chada turgan mashinalarni sayr qilish uchun minib, qochib, to'g'ri kelgan joyga tashlab ketadi. Egasi noma'lum, o'g'irlangan mashinalarni politsiya xodimlari, o'z egalari topilguncha maxsus avtosalonlarga olib borib

qo'yishadi. Avtomobil egalari avtosalonga kelib, bir-ikkita hujjatlarga imzo chekib, rasmiylashtirilsa bas, yana o'z ulovlaridan foydalanishi mumkin.

AQSHdagi ana shunday avtosalonlardan birida qiziq voqea bo'lib o'tdi. Kunlardan birida avtosalonga kostyum - shim, galstukda bashang kiyingan bir yigit kelib, avtosalon menejeriga juda shoshib turganligini va

o'zini biznesmen ekanligini aytib, tezroq uning Porsh-999 rusumli avtomobilini o'ziga qaytarib berishini talab qila boshlaydi. Menejer shoshganidan Porsh - 999 avtomobil kalitini yigitga berib, hujjatlarni olib chiqib qarasa, yigit allaqachon mashinaga o'tirib juftakni rostdab qolgan ekan. Yarim soat o'tgandan so'ng yana bir odam kelib, uning Porsh-999 rusumli avtomobili topilganligini eshitib kelganligini menejerga aytadi. Menejer qarasa bu odam ham aynan o'sha mashinani izlab kelganligi ma'lum

bo'ladi. Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi deganlaridek, menejer politsiyani chaqiradi.

Politsiya kelib, tekshirganidan so'ng shu narsa oydin bo'ladiki, Porsh-999 rusumli avtomobil bundan ikki yil oldin olib qochilgan bo'lib, egasi Sem Dikson bo'lib chiqadi. Mashina egasi Sem Dikson g'azablanganidan politsiyachilardan mashinasini topib berishni talab qila boshlaydi. Menejer Semni yupatish maqsadida unga o'zining ferrarisini, mashinasi topilguncha minib turishni taklif qiladi.

Ilm- fan, texnika rivoji mahsuli bo'lmish mobilnik telefonlar ko'payib, hayotimizga ham kirib kelmoqda. Bugungi kunda mobilnik telefonlar hatto modaga ham aylanib ulgurd.

Mobilnik telefonlar ko'rinishi jihatidan juda ham bejirim chiroyli ishlanishi bilan va ularning turli xil ranglar bilan ishlab chiqarilishi modani sevuvchi chiroylilikka layoqatli larni o'ziga elektr magnit

MODAGA AYLANJIR MOQDA

kabi tortadi.

Agarda sizning ham mobilnikingiz bo'lib, uni boshqalarnikidan ajralib turishini istasangiz yuvilerlarga bering, chunki mobilnikni bezashning o'zi telefon narxidan bir necha barobar qimmat turadi.

Mobilnik telefonlarni oltin va brilliantlar bilan bezatib beruvchi avstraliyalik yuveler Petr-Elisn mobilnik telefonlarni bezab berishni internet orqali taklif qilmoqda. Internetda aytilishicha, mobilniklarni ustki qismini oltin bilan quyilgan qobiq

qismi bo'lib, mobilnik egasining ismi yoki har qanday yozuvlarni brilliantlar bilan qoplab berishi ko'rsatilgan. Petrning birinchi xaridlaridan Arab davlatlarining qirol oilasidan buyurtmalar kelmoqda. Darhaqiqat, qimmat bir necha ming turuvchi mobilnikni o'zidan bir necha millionga bezatishni hamma ham istayvermaydi, axir million degani moda emas-ku, yana kim biladi.

Sharofiddin RISQULOV

Barchamizga ma'lumki Nyu-York fojeasi Jahon xalqlarini e'tiborini o'ziga qaratibgina qolmasdan, balki dunyo aholini yana bir karra ogohlikka da'vat etdi. Olamga qanday qora kuch rahna solmoqda. «Terror» degan ajdaho qayerdan paydo bo'ldi. Buni bilish barchamiz uchun o'ta zarur muammo bo'lib qoldi. Terror bu lotin tilidan olingan bo'lib «terror», ya'ni qo'rqitish degan ma'nosini anglatadi. Terror turlari: birinchisi - yakka terror. Bu terror uslubi o'z yovuz niyatini amalga oshirish uchun qurollangan holda qurolsiz odamga hamla qilib, o'z maqsadiga erishishdir.

Ikkinchisi - uyushgan terror. Bu terror vositasida ayrim shaxslar o'zaro birlashib, o'zlarining yovuzona rejalarini tuzishib, peshona teri bilan o'z kunlarini ko'rayotgan shaxslarni mol-mulkini talashni reja qiladilar. Uslub bitta - yakka shaxsni qo'rqitish, uni qiynoqqa solish. Shu bois tekin mol-mulkka ega bo'lish.

Uchinchi terror - davlat terrori. Ularni maqsadi davlat boshqaruviga ega bo'lib, elni qo'rqitish bilan o'ziga bo'ysundirish.

To'rtinchisi - davlatlararo terroridir. Bunda bir davlatni ikkinchi davlatga xuruji hisoblanadi.

Beshinchisi - diniy ekstremistik terroridir. Islom dinini o'ziga niqob qilib olib, millatlar o'rtasida

nizo uyg'otib, ularni Olloh nomi bilan qo'rqitib, millatlarni bir-biriga qarshi qo'yishdir. Endi e'tiborni terror qurollariga qaratadigan bo'lsak uning asosiy qurollaridan biri - bu giyohvand moddadir.

Ikkinchidan - diniy aqidaparastlar tomonidan davlatlarga va ularning yurtboshlariga qarshi xalqni ko'taruvchi soxta varaqalar.

Uchinchidan - ma'naviy qashshoq,

Uch karra ona yurtimizga hamla qilgan terrorizm malaylari endi xoyinlik, tulkilik, marazlik yo'lga o'tib olishdi. Bu qaysi jirkanch yo'l endi, e'tiborni o'shanga qarataylik. «Yiqilgan kurashga to'yimas», - deganlariday, ular yoshlarni giyohvand moddaga o'rgatishga harakat qilishmoqda. Hatto ayrim ma'naviy qashshoq yoshlar ular ta'siriga tushib ham qolmoqdalar. Yoshlarga shuni

TERRORIZM - TARAQQIYOT DUSHMANI

mol dunyoga o'ch ayrim shaxslarni o'z manfaatlar uchun foydalanishda ishlatiladigan soxta mablag'lardir.

Yurtimiz ayrim davlatlarga qaraganda terror azobini birmuncha ko'proq boshidan o'tkazdi. Bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizinchii yil o'n oltinchi fevral fojeasi yoki bo'lmasa Sirdaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun tumanlari, Andijon viloyatining Izboskan tumani, Toshkent viloyatining Parkent tumani, Angren shahrining Yangiobod shaxarchasi shunga o'xshash joylarda bo'lgan fojealarni butun dunyo guvohi bo'ldi, jonajon O'zbekistonga kim ezgulik istab kelsa, oshini yeydi, yovuzlik istab kelsa boshini yeydi, degan xalqimiz maqoli naqadar to'g'ri ekanligi jahon elatlari oldida yana bir karra o'z isbotini topdi.

ochiq oydin aytmog'imiz darkorki gerayin moddani iste'mol qilgan odam ikki yarim yildan keyin qiynalib o'ladi.

Shunday ekan giyohvand moddani umuman iste'mol qilinmagani ma'qul. Hayot taassurotlari shuni ko'rsatadiki, terrorizmga, giyohvandlikka qarshi kurashga yangi uslubiga o'tish zarurligi sezilmoqda. Yoshlar terror va giyohvandlikning oqibatlarini ham o'z quloqlari bilan eshitsin va o'z ko'zlari bilan ko'rsalargina maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois bizning teatrimiz I.A.Karimovning «Hushyorlikka da'vat» asari asosida teatralshgan suhbat tomoshani sahnalashtirib respublikamizning Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida bo'lib yuqoridagi uslubni o'z tajribalarida o'tkazdilar. Natija kutgandan ham ortiq bo'ldi.

Joylarda prokuratura xodimlari, ichki ishlar vakillari, xalq posbonlari, imom xatib va mahalla oqsoqollari ishtirokidagi suhbat tomoshalar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Aslini olganda bu uslub yangilik emas. 1911 yilda turkiy dramaturgiya, ya'ni o'zbek teatrlarining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi kichik teatr olib tomoshalar qo'rgan o'sha davr tomoshalari bugungi tomoshalardan tubdan farq qiladi.

Spektakl mazmuniga qarab, tomoshadan oldin dramaturg yoki rejissyor qisqa ma'ruza qiladi, tomoshabinni tomoshaga tayyorlagach spektakl boshlanadi. Sahna tili bilan aytganda «antrakt»dan keyin yana suhbat davom etib tomoshabin spektakl davomini tomosha qiladi. Uslubning qulayligi shundaki, tomoshabin teatr aktyorini his etsa, o'z navbatida aktyor tomoshabinni his qiladi. Qaysi mavzuda asar qo'ymang teatrga tomoshabin oqib kelaveradi. Behbudiy tili bilan aytganda «teatr hayot oynasi, odam qilmishini sahnada o'z ko'zi bilan ko'rsin ana shunda ta'sir o'zgacha bo'ladi. Muloqotli tomoshadan kuchli vositaning o'zi yo'qdir» degan.

R.B.YORIYEV,
Respublika «Turon» yoshlar
teatr
studiyasi badiiy rahbari.

Men hikoya qilmoqchi bo'lgan bu bolakay endigina 11 yoshni qarshi oldi. Lekin kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni, degan hikmatli so'zlar xuddi Abrorbek Akobirov uchun aytilganday. Abrorbek bilan bo'lgan qisqagina suhbatimiz davomida uning odobli, kamsuqum, bilimga chanqoq bola ekanligini payqadim. Abrorbek 5 yoshdan boshlab 1-sinfga o'qishga borgan bo'lsa, hozirda Yunusobod tumanidagi 302-o'rta maktabning 7-sinfida a'lo baholarga o'qiyapti. Undan tashqari 2 yildan buyon «Jar» sport majmuida «Karate» bo'limida muntazam shug'ullanadi. Hozirda esa bu o'g'lonimiz ko'k belbog' sohibi Toshkent shahrida bo'lib o'tgan bellashuvlarda 2-3 o'rinlar sohibi bo'lgan.

YAqinda Qozog'istonning Taraz shahrida bo'lib o'tgan «Taraz ipak yo'li» deb nomlanuvchi musobaqada 1-o'rinni olib qaytdi. Meni bu g'alabaga erishishimda ustozim Mirsulton Mirjalolovni xizmatlari juda katta, deb ta'kidlaydi har bir



OTTA O'G'IL

so'zida. Men yosh chempion bilan suhbatim davomida Abrorbekning dadasi bilan ham ozgina bo'lsada o'g'illari haqida so'raganimda haqiqiy «ota o'g'il» deb faxr bilan ta'kidladilar. Ha, haqiqatdan ham har bir insonning o'zi orzu qilganday o'g'il qizlari bo'lsin. Abrorbekning dadasiday hamma ham farzandlari bilan faxrlansin. Senga Abrorbek doimo omad yor bo'lsin. O'zbekistonni kelajagi senday o'g'il-qizlarning qo'lida. Omad quyoshi har doim yaraqlab tursin. Bundanda yuqori cho'qqilarni zabt etgin.

Tuhfaniso
ORTIQBOY
qizi.



YAQIN SHARQDA HAMON NOTINCHLIK

O'tgan yakshanbada Isroilning Xayfa va Quddus shaharlarida yana qo'poruvchilik harakati sodir etildi. Tushga yaqin, soat birlarda Xayfa shahridagi yo'lovchi avtobuslardan biri falastinlik terrorchi-kamikadze tomonidan portlatib yuborildi. Buning natijasida kamida 16 yo'lovchi qurbon bo'ldi va 100 dan ortiq odam turli tan jarohatlarini oldi.

Terrorchi qorniga bog'lab olgan bomba shu qadar kuchli portladiki, uning zarb kuchidan ko'chadagi boshqa odamlar, mashinalar va avtobuslar katta zarar ko'rgan.

Xuddi shu kuni Quddusda ham falastinlik aholi gavjum joyda terrorchi o'zini portlatib yubordi. Buning natijasida kamida 11 kishi qurbon bo'ldi va 100 dan ortig'i jarohatlandi.

Yuqoridagi ikkala qo'poruvchilik uchun Falastindagi «Xamas» radikal tashkiloti javobgarlikni o'z bo'yiga oldi.

Bu portlashlarga javoban Isroil politsiyasi Janinda 4 nafar, Tulkarnida 1 nafar terrorchini otib o'ldirgan.

Falastin rahbarining buyrug'i bilan hududdagi radikal tashkilotlarning 100 ga yaqin a'zosi hibsga olindi.

Xayfa va Quddusdagi portlashlarda jarohat olgan Isroil fuqarolarining 17 nafarining ahvoli og'ir.

KUN CHIQUAR O'LKADA ZILZILA

Yaponiyaning shimoli-sharqiy qismida

DUNYO DARCHASI

zilzila ro'y berdi. Zilzilaning kuchi Rixter shkalasi bo'yicha olti ballni tashkil etdi.

Ushbu hududdagi ko'plab bino va turar joylar jiddiy talofat ko'rgan, aholi orasida jarohatlanganlar ham bor. Ammo, hozirga qadar qurbon bo'lganlar haqida ma'lumot yo'q.

Joriy yilning boshlarida ham Yaponiyadagi bir nechta orollarda zilzila sodir bo'lgan edi.

TINCHLIKKA NIMA YETSIN?...


Afg'onistonning boshqa shaharlarida esa asta sekin tinch hayot tarzi vujudga kelib bormoqda.

Maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darslar yo'lga qo'yilmoqda. Qobulda mahalliy televideniya kuniga to'rt soatlik ko'rsatuvlarini yo'lga qo'ymoqda. Sartaroshxonalar soqol va soch oldirish istagida bo'lgan erkaklar bilan liq to'la.

Bozorlar ham mahsulotlarini sotayotgan erkak va ayollar bilan gavjum.

Germaniyaning Bonn shahrida esa Afg'onistonning kelajagiga bag'ishlangan uchrashuv o'z nihoyasiga yetmoqda.

Unda kelayotgan 6 oy muddatga muvaqqat hukumat tuzish, Afg'onistonning yangi rahbarini tayinlash, yangi tuzilajak hukumat va Afg'onistonning oliy kengashi Loyi Jirg'a tarkibiga Afg'onistondagi barcha etnik guruhlardan vakillarni kiritish kabi muhim masalalar ko'rilmogda.



O'QI, QIZIQ!

MO'JIZA JONIVOR

Qadim zamonlarda hayvonlar bilan qushlar orasida juda katta jang bo'libdi. Jang bir necha kun davom etib, qushlar yengila boshlabdi. Ular safida yurgan ko'rshapalak bir holni ko'rib, men axir qush emasman-ku, ularnikidek tumshug'im ham yo'q. Tanamni par emas, jun qoplagan, deya o'zicha xulosa chiqarib, hayvonlar tomoniga o'tib olibdi.

Jang so'nggida esa qushlar g'olib chiqib, hayvonlar chekina boshlabdi. Buni ko'rgan ko'rshapalak «Men hayvon emasman-ku. Mening qanotlarim bor, xuddi qushlardek uchib yuraman» debdi-da, yana qushlar tomonga o'tib olibdi.

Nihoyat, hayvonlar podshosi Arslon bilan qushlar shoxi Burgut uchrashib, yarashish haqida bitim tuzib, qonli jangga xotima yasashibdi. Ko'rshapalakni esa ikkiyuzlamachiligi uchun qattiq uyaltirishibdi. Shundan buyon u qorong'u g'orlarda yashab, kechalari ovqat izlarmish.

Bu bir rivoyat, xolos. Haqiqatan ham ko'rshapalak hayvonlar bilan qushlar o'rtasidagi jonivordir. Hayvonlarga o'xshab bolasini tirik tug'adi, emizib katta qiladi. Qushlar kabi hamisha uchib



yuradi. Yashash sharoiti parrandalarnikiga o'xshab ketadi. Odamlar uni qush deb atasalarda, fanda hayvon deb hisoblanadi.

Ko'rshapalak foydali jonivor sanaladi. Xuddi qaldirg'ochlar kabi pashsha, qo'ng'iz, kechasi uchadigan zararkunanda hasharotlar bilan oziqlangani uchun ham uni «Tunggi qaldirg'och» yoki bo'lmasa «Tunggi sanitar» deb atashadi. Bir kechada o'rtacha 500 ta zararkunandaga qiron keltiradi.

Ko'rshapalaklar qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashda eng yaxshi qurol hisoblanadi.

Mana aziz bolajonlarim, ko'pchiligingiz yoqtirmaydigan ko'rshapalaklarning siz o'ylaganchalik yomon emas, foydali jonivor ekanliklarini bilib oldingiz. Bu beozor jonivorlarga ozor bermanglar!

Ali KO'CHIYEV.



13 RAQAMIDAN HALIYAM «QO'RQISHADI»

Oyning 13 kuni to'g'ri keladigan har juma kuni Chikago mehmonxonalaridan birida 13-xonada 13 ta oynani sindirish uchun 13 kishi yig'iladi. Go'yo shu bilan «baxtsiz» kunni «baxtli» qilishadi. Umuman olganda, amriqoliklarning ko'pchiligi 13 raqamidan juda «qo'rqishadi». Shuning uchun bo'lsa kerak, Nyu-Yorkdagi nashriyotlardan biri har yili yilnomani 13 raqamisiz chiqaradi, ya'ni 13 o'rniaga ikki marta 12 raqamini qo'llaydi. Ko'p mehmonxonalarda esa 13 xona yo'q. Ayrim samolyotlarda ham 13 joyni kunduzi chiroq yoqib ham topib bo'lmaydi, kasalxonalarda ham ahvol shu.

ETIK KIYGAN ITLAR

Yangi Zelandiyaning Vellington shahri aholisi ko'cha-kuyda oyog'iga etik kiydirilgan itlarni ko'rib hayron bo'lishmoqda. Bu yangi moda emas, politsiyachilar xizmat yuzasidan o'z ovcharkalari bilan restoranlarga borganda, u yerdagi to's-to'polon natijasida singan idish qoldiqlari itlarning oyoqlarini kesib yubormasligi uchun hayvonlarga maxsus ishlangan rezinka etik

kiydirishadi.

XATOSINI TOPING

Olmoniyaning Shtutgart shahridagi nashriyotlardan biri sahifalari xatolarga boy bo'lgan o'quv kitobini bosmadan chiqardi. Bundan

asosiy maqsad - o'quvchi bilimni tekshirishdir. O'quvchi kitobdagi xatolarni qizil qalam bilan to'g'rilaydi, kimning kitobi ko'proq «bo'yalgan»

bo'lsa, o'sha o'quvchining bilimi durust ekanligi bilinadi.

HAR KIM O'ZI TAYYORLAYDI

Glagoda ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortadigan restoran ochilgan. Bu yerga kelganlar o'z xohishlariga qarab, xohlagan ovqatlarini o'z qo'llari bilan tayyorlashlari mumkin. «O'zing tayyorla» formulasi ko'pchilikka qo'l kelishi bilan birga mijozlarga ancha muncha arzonga ham tushadi.

Baxtiyor VALIYEV,
TDMI instituti IMF
1-kurs talabasi.




BIRINCHI QOR

- Ertaga qor yog'sa kerak, - deya gap boshladi Nargizaning buvisi tashqaridan kirarkan, - sovuq zo'r bo'lyapti.

-Aytganingiz kelsin-da, -deya iltijo qildi onasi. -Chunki, mana necha kundirki Nargiza qizamiq kasali bilan og'rib, isitmaliab yotibdi. Aytishlaricha, qor yog'sa, kasallik chekinar emish...

Tong otishi bilan Nargiza umidvor bo'lib tashqariga qaradi, qor yog'mabdi. Kasallik ham hali uning tanasini tark etmabdi. To'shagidan bazo'r turib, dalaga chiqdi.

Yuz-qo'llarini yuvib, qandaydir yumushlar bilan band bo'lib yurgan onasining yoniga bordi. Ko'maklashmoqchi bo'lgandi, onasi unamadi: «Qo'y qizim, sovuqqa chiqma. Yumushlarimni o'zim qilaveraman. Sen avval yaxshilab tuzalib ol» deya issiqqina sut ichirdi. Nargiza yana holsizlanib, o'rniga yotdi. Birozdan so'ng ko'zi ilinib uyquga ketdi. Qancha uxlaganini bilmaydi-yu buvisi bilan onasining dorivor giyohlardan



tayyorlayotgan dorisining qo'lansa hidi dimog'iga urilib, uyg'onib ketdi. «Mana shu achchiq dorini ichaverish, o'rinda yotaverish ham jonga tegdi-da» ko'nglidan o'tkazdi u. Ammo nachora, ichmasa tuzalmaydi. Turib o'ynay desa, majoli yo'q. Shu tariqa kunni kech qildi. Hamma uyquga ketdi. Kun bo'yi uxlamaganmi, ko'ziga uyqu kelmasdi. Derazaga qaradi, tun emasmi, hech narsa ko'rinmasdi.

Yuragi siqilib, biroz yig'lab ham oldi. So'ngra tun to'shagiga bosh qo'ygancha uxlab qoldi.

Ertalab bolalarning shodon qiyqirilaridan uyg'onib ketdi.

«Qor, birinchi qor» deya baqirishardi ular. Nargiza shosha-pisha derazani ochdi.

Qo'lini osmonga tutdi. Parcha-parcha qor qo'lga tegdi-yu zumda erib ketdi. Quvonganidan kasalini ham unutib, dalaga oshiqdi.

U o'zini qushdek yengil his qilar, kayfiyati ham a'lo edi. Tashqarida esa intiq kutgani - birinchi qor yog'ardi.

Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi
59 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.



SHE'RIYAT

She'riyat shoirning gulgun bezagi,
Qalbidan buloqdek chiqqan tilagi.
Rassom dilidagin so'ylar mo'yqalam,
She'riyat - qalbdagi quvonchu-alam.

Shoir to'kib solar dilida borin,
Quvonchli kunda ham, qayg'u alamda.
She'riyatga baxshida his-tuyg'usini,
Jilovlay oladi faqat qalamda.

Feruza RIZAYEVA, Buxoro
viloyati G'ijduvon shahridagi
qurilish va kommunal xo'jalik
kasb-hunar kollejining III- kurs
talabasi.

XARITADA O'Z
O'RNINI BOR

Mustaqildir ona yurtim,
Xaritada o'z o'rnini bor.
Qo'lda tig'i, boshda xumo,
Adolatli qonuni bor.
Qomusimiz har satrida,
Ezgulikning urug'i bor.
Amir Temur bobomlarning,
Tuzib bergan «tuzugi» bor.
Adolatu ma'rifatni,
O'zimizga dastur bildik.
Yurt tinchligi, xalq birligi -
Ezgu maqsad deya bildik.
Qonunning biz siyosatdan,
Ustunligin ta'minladik.
Qomusimiz har bandini,
Mafkuradan xoli qildik.
Do'stlar, sizga maslahatim,
Qonunlarga amal qiling.
Shundagina biz hayotda,
Yanglishmaymiz, shuni biling!

Shohsanam KABIROVA,
Toshkent Davlat Texnika
Universiteti qoshidagi
Chilonzor akademik litseyining
9 - sinf o'quvchisi.

ALPOMISHGA

Surxonimning o'g'loni,
Dong'i ketgan Alpomish.
Jasurlik-la qalmoqning,
Barcha alpin yengganmish.
Bobom aytar: «Bolajon,

Alpomishdek bo'l sen ham.
Bilim ol, hunar o'rgan,
Kuch-quvvatga to'l sen ham».
Niyatim shul - ulg'ayib,
Kuch-quvvatga to'laman.
Bobom orzulagandek,
Alp bir o'g'lon bo'laman!

Feruz OMONNIYOZOV,
Surxondaryo viloyati, Angor
tumanidagi 5 - o'rta
maktabning 8 - «A» sinf
o'quvchisi.



DO'STLIK

Do'stlik nimadir o'zi,
Quvonch, shodlik yoki g'am?
Shoshilmagin sen o'rtoq,
Avval jiddiy o'ylab boq.
Barcha do'stlardan a'lo,
Eng yaqin do'sting bo'lsin.
Sen quvonsang, quvonsin,
Ranjisang, g'amga to'lsin.
Faqat unga siring ayt,
U esa aytsin senga.
Bir dona kulcha olsang,
Ilingin doim unga.
Yordamingni ayama,
U qiynalib qolgan dam.
Dilini ranjitmagin,
Noo'rin so'zlasa ham.
- Do'stlikning nimaligin,
Bildingmi endi Nig'mat?
- Bildim, do'stlik degani-
Ekan bebaho ne'mat!

Nodira BAHROMOVA,
Chilonzor tumanidagi 201 -
maktabning 9 - sinf
o'quvchisi.

AMIR TEMUR

Bizning faxrimiz erur,
Bobomiz Amir Temur.
O'z yurtim, xalqim deya,
Qalbida toshgan g'urur.
Yovni quvdi beomon,
Ayamay hatto jonni.
Birlashtirdi ellarni,
Qayta tiklab Turonni.
Keng jahonda yagona,
Tuzdi u buyuk davlat.
Dediki: «Turkiy ellar,
Bo'lsin ahil, hamjihat».

Bugun baxt kulib boqdi,
Turkiston, Turon obod.
Vatanni ozod ko'rib,
Temur bobom ruhi shod.

Zilola HAMROYEVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi
Y.Oxunboboyev nomli 6 -
maktabning 5 - sinf o'quvchisi.

FARZAND

Xalqimizda shunday naql bor:
«Bolali uy bozor, bolasiz - mozor».
Farzand bo'lmasa gar keng dunyo tordir,
Farzandli uy go'yo bog'u chamanzor.
Farzand oilaning quvonchi baxti,
Bo'lmasa ham molu dunyosi garchand.
Ne kerak insonga mol-dunyo, taxti,
Davlati bo'lsa-yu bo'lmasa farzand?!

Dilnoza BOTIROVA,
Toshkent Pedagogika
kolleji talabasi.

XANDALAR

«YIRTQICH» DIREKTOR

O'qituvchi o'quvchilardan so'radi:
- Kimni hayvonot olamining shohi desa
bo'ladi?
- Hayvonot bog'i direktorini, - deya javob
berdi bir o'quvchi bilag'onlik bilan.

KECHIKISH SABABI

- Darsga nega kech qolding? - so'radi
o'qituvchi o'quvchidan.
- Bir kishi pulini yo'qotib qo'ygan ekan.
- Sen qidirishib yubordingmi?
- Yo'q, o'sha pulni oyog'im bilan bosib
turgan edim.

OMON BO'LING XOLAJON!

Xolasi kichkina Anvarni erkalatib, dedi:
- Senga shokolad olib kelgandim.
Sumkamda turibdi. Ketayotganimda olib
berarman, dedi.
- Kechga qolmay, bora qoling xolajon,
dedi Anvarjon mehribonlik bilan.

KO'PDAN BUYON
YASHAYDI

Mehmon:
- Alisher, buving necha yoshdalar?
Alisher:
- Yoshlarini bilmaymanu biznikida
anchadan buyon yashaydilar.
Jahongir OBLOQULOV,
Toshkent shahridagi
188 - maktab o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'lida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset-usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.

Buyurtma № T-3092
Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08